

1. O'zbekiston Respublikasi va Moxititashma

Qo'shimcha murojat. Hujumda qurashni qidirish uchun surʼati yozish.

2. Tashqariyotga oʻsish uchun surʼati yozish.

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi**

**60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)
bakalavriat ta'lif yo'naliishing malaka talablari**

Toshkent

ЎЗР ОҮМТВ

Буйруқ № 365

25.08.2021 йил

1. ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.

2. TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil «24» 08 dagi 4 - sonli yig‘ilishida ma’qullangan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2021-yil «25» 08 dagi 365- sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> bakalavriat ta'lif yo'naliishing umumiy tavsifi	4
1.1.	Qo'llanish sohasi	4
1.1.1.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi	4
1.2.1.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....	5
2.	<i>60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili)</i> ta'lif yo'naliishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.....	6
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	6
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	6
	Bibliografik ma'lumotlar.....	8
	Kelishuv varag'i.....	

1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shaklida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi.

1.1.1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talabi 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;
- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari:

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) – ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasining yo‘nalishi bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiytadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, vazirliklar, qo‘mitalar, uyushmalar, fuqarolik jamiyati institutlari, tashkilotlar, ta’lim, ilmiy tadqiqot muassasalari, milliy va xalqaro OAVlaridagi kompleks masalalar yechimini qamrab oladi.

1.2.2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalari va boshqalar;
- o‘zbek tilida yaratilgan badiiy matnlar, fikr ifodalashda potensial ma’no yasovchi vositalar;
- nutqning yaratilish jarayoni; muloqot birliklari; badiiy-estetik kommunikatsiya; matn talqini, tushunish va idrok etish;
- ta’lim jarayoni me’yoriy hujjatlari, pedagogik texnologiyalar, ta’limning texnikaviy vositalarini o‘rganish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash.

1.2.3. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- ilmiy-tadqiqot;
- ma’naviy-ma’rifiy faoliyat;
- pedagogik faoliyat (umumiyl o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’limi tizimida);
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat.

1.2.4. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.

– 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlash, qayta ishslash, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotda qo‘llash;
- ilmiy muammolar yechimi natijalarini amaliyotga joriy etish.

Ma’naviy-ma’rifiy faoliyatida:

- Yoshlar ittifoqi tashkiloti, mahalla fuqarolar yig‘ini bilan hamkorlikda ma’naviy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha individual suhbatlar o‘tkazish;
- O‘zbekiston va jahon tarixiga oid manbalardan ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy sohada foydalanishni tashkillashtirish;
- umuminsoniy qadriyatlar, mehr-muruvvat, bag‘rikenglik, vatanparvarlik, sadoqat kabi yuksak insoniy fazatlarni ochib berish.

Pedagogik faoliyatida (umumiyl o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’limi tizimida):

- umumiyl o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’limi tizimi muassasalarida tayyorgarlik yo‘nalishida nazarda tutilgan o‘quv fanlari bo‘yicha zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nazariy hamda amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazish;
- o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtiroy etish, ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish;
- o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni shakllantirish, tuzish va ularni tatbiq etish;
- mustaqil ta’lim va ijodiy qidiruv natijasida o‘qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi metodlar, vosita va shakllar masalasida o‘z-o‘zini muntazam takomillashtirib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- pedagogik jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan resurslarni rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

– atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi masalasida ishlab chiqarish jarayonini nazorat qilishda ishtirok etish.

Quyidagi bakalavr darajasi kvalifikatsiyasi beriladi:

– Filolog, o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchisi

2. 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O‘zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

- dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo‘lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;

– o‘quv fanlarini o‘qitish metodikasini egallah;

– elektron o‘qitish usullarini egallah;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

– o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;

– an‘anaviy va noan‘anaviy metodlar, ilg‘or pedagogik texnologiyalarni ixtisoslikka mos fanlarni o‘qitish chog‘ida tanlay olishi, o‘z fanida metod va texnologiyalarni ijodiy qo‘llay olishi, faktlarni tahlil qilishi, umumlashtirish va shu asosda xulosa chiqara olish;

– internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usul va vositalariga ega bo‘lish;

– sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tessavvur hamda e’tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

– til va adabiyot fanlarini o‘qitishda namunaviy innovatsion texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash; zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noa‘nanaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

– mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy qidiruv ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish;

– o‘zbek tili va adabiyoti tarixi, ta’limoti va nazariyalari, yirik namoyandalari, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning fan sohasi sifatida shakllanishi, ushbu sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish;

- o‘zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek folklori, o‘zbek dialektologiyasi, hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, matnshunoslik, navoiyshunoslik, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallah, ilmiy tadqiqot asoslari, sotsiolingvistika, o‘zbek terminologiyasi, o‘zbek leksikografiyasi, turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy

grammatikasi, til fanlari, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay bilish va o‘quvchilarga yetkaza olish;

– hujjatchilik tarixi, xususan, sharq hujjatchiligi, hujjat turlari va ish yuritish asoslari, hujjat tili va uslublari haqidagi tasavvurga ega bo‘lish; davlat tilida yoziladigan har qanday huquqiy-me’yoriy hujjatlarni shakllantirish va tahrir qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

– ona tilidan zamonaviy dasturlar va darsdan tashqari mashhg‘ulotlar mazmuni, ta’limga doir me’yoriy hujjatlar bilish;

– aruz vazni va uning qoidalari, mumtoz she’riy asarlarning o‘lchovini aniqlash va mumtoz janrlar badiiyatini o‘rganish; islomgacha bo‘lgan Sharq adabiyotshunosligi manbalari, adabiy oqim va yo‘nalishlar, adabiyotshunoslik janrlarining genetik ildizlari va qo‘llanilish mohiyatini tushunish; tasavvufning manbalari hisoblangan Qur‘oni karim, Hadisi sharifga asoslangan tasavvufning nazariy manbalari, Markaziy Osiyodagi tasavvuf tariqatlari, badiiy asarlar tarkibidagi irfoniy va tasavvufiy g‘oyalarni anglash, ramz va timsollarning ma’nolarini sharhlash bo‘yicha tushunchaga ega bo‘lish, Sharq tazkirachiligi tarixini o‘rganish orqali adbilarning tarjimai holi va ijodiy merosi haqida bilimlarini egallah; adabiy matn tabiatini falsafiy asosda anglash, tadqiq etish va matnni tahrir qilish ko‘nikmasini shakllantirish;

– gapning semantik, modal, kommunikativ aspekti, o‘zbek tilshunosligida matn, xususan, badiiy matnning semantik-sintaktik va lingistik mexanizmlarini, o‘zbek tilining mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon bo‘lish qonuniyatlarini anglash; leksik ma’no va uni belgilovchi omillar, leksik ma’noning strukturasi, leksik ma’noni tahlil qilish usullari hamda shu sohada qo‘lga kiritilgan jahon va o‘zbek tilshunosligidagi so‘nggi yutuqlaridan xabardor bo‘lish; nutq madaniyati va uslubiyati asoslarini o‘rganish;

– o‘qitishning ilmiy asoslarini tahlil qilib borishi, metodik birlashmalarda umumiyo o‘rta ta’lim maktablari va o‘rta maxsus ta’limi mazmunida fanning o‘rnini belgilay olishi va uning ilmiy muammolari bo‘yicha pedagogik o‘qishlarda ma’ruzalar o‘qishi, umumiyo o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilar bilan muloqotda har bir yosh doirasiga psixologik yondoshish va o‘rta maxsus ta’limida differensial ta’limni yo‘lga qo‘ya olishi, o‘quv jarayoni bilan bog‘liq barcha hujjatlarni yurita olish;

– yangi o‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o‘ziga xos xususiyatlari o‘rganish malakasi va bilimiga ega bo‘lish; o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiyo yo‘nalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyoshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, o‘zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o‘rganilishi, o‘zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; turk, ojarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman adabiyoti to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish berilib, bu xalqlar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, folklori yozma adabiyoti namunalardan xabardor bo‘lish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasi tadqiq qilish qarashni shakllantirish;

– axborotlarni to‘g‘ri ifoda etish asosida mafkuraviy immunitetini shakllantirish biorasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim;

– ta’lim yo‘nalishi negizidagi muayyan magistratura mutaxassisligi bo‘yicha kelgusida ta’limni davom ettirishga ongli munosabatda bo‘lishiga ko‘maklashishi kerak.

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli; hozirgi o'zbek tili, lison, nutq, me'yor, qadimgi turkiy til, til tarixi, tarixiy grammatika, tilshunoslik nazariyasi, til va jamiyat, til oilalari, til guruhlari, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, terminologiya, leksikografiya, arab va fors alifbosi, dialektologiya, xalq og'zaki ijodi, mifologiya, bolalar folklori, mumtoz adabiyot, adabiy yodgorliklar, navoiyshunoslik, milliy uyg'onish, yangi o'zbek adabiyoti, adabiy tanqid, jahon adabiyoti, turkiy xalqlar adabiyoti, adabiyotshunoslik, o'qitish metodikasi, matn, matnshunoslik

KELISHUV VARAG'I

ISHLAB CHIQILGAN:

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



Rektor SH.Sirojiddinov

202 -yil « ____ »
M.O.

KELISHILGAN:

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limi rivojlantirish
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni
tatbiq etish markazi**

Direktor v.b. M.Esonov



202 -yil « ____ »
M.O.


**O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va
folklori instituti**

Direktor N.Mahmudov



**O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasi Alisher Navoiy
nomidagi Davlat adabiyot muzeyi**

Direktor J. Eshonqulov



202 -yil « ____ »
M.O.